

ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNING RUHIY RIVOJLANISHI

Xonqulova Zohida Sherali qizi

*Axborot texnologiyalar va menejment universiteti
Defektologiya yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya. *Ushbu maqola eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni ruhiy rivolanishi va ularga pedagogik-psixologik yordam berish va ularni ruhiy rivojlanishlarni tartibga solish, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni sezgisi, idroki, xotirasi, hissiy, ijtimoiy, aqliy, nuqtiiy rivojlanishlarini va bunday nuqsonli bolalarga oila a'zolarini qo'llab quvvatlashi orqali ularni ruhiyatiga ta'sir o'tkaza olishi haqida yoritib beradi*

Kalit so'zlar. *Surdopedagogika, pedagog, psixolog, taktil, visual, rivojlanish, kar, idrok, hissiy, ijtimoiy, aqliy, nuqtiiy rivojlanishlar, ruhiy rivojlanish0.*

Kirish. Surdopedagogika (lot. "surdus"-kar) maxsus pedagogika tarmog'i, eshitish qobiliyati buzilgan bolalar va katta kishilarning rivojlanishi, tarbiyalanishi, ta'lim olishi haqidagi fandir.

Ruhiy rivolanish – bu insonning ichki dunyosi, hissiyotlari, fikrlash qobiliyatlari, xarakteri va shaxsiyatini o'sishi va shakllanish jarayonidir. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ruhiy rivojlanishi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bunday rivojlanishlar bolalarning aqliy, hissiy, ijtimoiy qobiliyalariga katta ta'sir qilishi mumkin. Bolalarda eshitishning passayishi yoki umuman yo'q bo'lishi nutqning rivojlanishi, aqliy rivojlanish, ijtimoiy rivolanish, hissiy rivojlanish kabi qator rivojlanishlarning buzilishiga olib keladi.

1. Nutqning rivojlanishi – eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda nutqning shakllanishi sustroq bo'ladi. Bunday nuqsonli bolalar so'zlarni to'liq va to'g'ri talaffuz qila olishmaydi va o'zlari ham to'g'ri qabul qilishmaydi. Buning natijasida esa nutq rivojlanishiga salbiy ta'sir qiladi. Bunday nuqsoni bor bolalarga erta tashxis qo'yish orqali ularga imo-ishora tili va malakali logoped yordami orqali muloqot rivojlanishini oshirish mumkin.

2. Aqliy rivolanish – eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda aqliy rivojlanish to'xtab qolmaydi. Chunki ularni ijtimoiy-jismoniy holati davom etadi. Bunday bolalarda ma'lumotlarni qabul qilish va ularni qayta ishlash boshqacha shakllangan bo'ladi. Ular ko'proq ko'rish orqali (vizual) va teginish, ushlab ko'rish (taktil) orqali bilim, ko'nikmalar olishadi.

3. Hissiy rivojlanish – eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda ko'pincha yolg'izlik, o'zni aglay olmaslik, xafalik, tushkun kayfiyatlilik kani holatlar tez uchraydi. Ularga qo'llab-quvvatlash, mehr-muhabbat, tushunish kabi hissiy tuyg'ular bilan munosabatda bo'lish lozim.

4. Ijtimoiy rivojlanish – eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar tashqi muhit bilan kirishimli bo'lishi juda qiyin bo'ladi. Jamiyatda o'z o'rinlarini topishlari va muloqotlarda, munosabatlarda qiyinchiliklarga duch keladilar. Bunday hollarda bu bolalarga maxsus

pedagogik va psixologik yondashuv bilan ularni ijtimoiy muhit bilan aloqalarini yashilashga yordam beriladi.

Eshitishda muammosi bo‘lgan bolalarning ruhiy rivojlanishidagi o‘ziga xos rivojlanish qonuniyatlarini bir qancha usullar bilan o‘rganish mumkin:

- kar va sog‘lom bola ruhiy rivojlanishidagi umumiy va xususiy tomonlarini aniqlab o‘rganish;

- kar bolalar bilish jarayonining alohida shakllarining rivojlanishidagi o‘ziga xosligini o‘rganish va aniqlash – sezgi, idrok, xotira, tafakkur, nutq hamda uning shaxs sifatida shakllanish qonuniyatlarini aniqlab o‘rganish;

- rivojlanishi nuqsonli bo‘lgan bola shaxsining rivojlanishiga samarali ta’sir ko‘rsatadigan metodlarni psixologik jihatdan asoslab berilib, bu metodlarni eshitishda muammolari bo‘lgan bolalarga beriladigan ta’lim orqali munosib qo‘llanilib, eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni o‘z qobiliyati va qiziqishi orqali o‘z o‘rinlarini topishda yordam berilishi orqali barkamol tarbiyasini amalga oshirishga qaratilgan ishlar rejalashtiriladi.

Eshitish sezgisi va idroki ayniqsa nutqni egallashda muhim rol o‘ynaydi. Nutqning aktiv va passiv shakllari aynan eshitish sezgisi va idroki asosida amalga oshadi. Eshitmaydigan bola ko‘rgan narsalarining nomlarini va hodisalarni so‘z orqali ifodalay olmaydi va ularga munosabat bildiray olmaydi. Bunday holat bolani ruhiy jihatdan to‘g‘ri rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi. Karlik tufayli bolada ikkilamchi nuqsonlar vujudga keladi: soqovlik, ruhiy rivojlanishining orqada qolishi va hokazo. Chunki bu ikkilamchi nuqsonlar eshitmaslik tufayli vujudga keladi. Barcha psixik jarayon, tafakkur, xotira, idrok, diqqat va butun bilish jarayoniga ta’sir qiladi. Eshitishni korreksiyalash qanchalik erta tashkil qilinsa, nutqdagi kamchiliklar shunchalik erta to‘g‘rilanadi. Eshitishda muammosi bo‘lgan bolalarning asab tizimining faoliyatini egiluvchanligi tufayli ularda kompensatorlik imkoniyatlariga ega bo‘ladilar. Bunday bolalar atrofdagilar bilan muloqotda bo‘lishda qiyinaladi. Shaxs sifatida shakllanishi va rivojlanishi, o‘zligini anglashi, o‘z munosabatini va fikrini bildirishda sog‘lom bolalardan farqlanadi.

Eshitmaydigan bolaga ta’sir etuvchi tashqi omillar nihoyatda tor bo‘ladi. Bunda bolalarning tashqi muhit bilan muloqoti cheklangan bo‘ladi. Bunday bolalar atrofdagilar bilan muomalada bo‘lishi va o‘z hissiyotlarini bayon qilish imkoniyatlari chegaralangan bo‘ladi. Buning natijasida bolalarning ruhiy rivojlanish jarayonlari juda oddiy holda bo‘ladi va tashqi ta’sirlarga reaksiyasi sodda, har doim bir xilda kuzatiladi. Shu sababli eshitmaydigan bolalarning analizatorlar faoliyatida o‘zaro bog‘lanishlar sog‘lom bolalardan farqlanadi va ularning o‘z fikrini bayon qilish formalari farqli kechadi. Eshitishda muammosi bo‘lgan bolalarning ruhiy rivojlanishi bilan me’yordagi bolani ruhiy rivojlanishidagi farq asosan uning jadalligi va sifatida namoyon bo‘ladi. Har qanday bolaning ruhiy rivojlanishi uning analizatorlarining sog‘lomligi, umumiy salomatligi, o‘sayotgan muhitiga bog‘liq. Sog‘lom va eshitmaydigan bolaning ontogenezdagi rivojlanishida kam farqlanadi, va bunday farqlanishlar rivojlanishning keyingi bosqichlarida ortib boradi.

Eshitishida muammosi bo‘lgan bolalar dastlab nutqni bevosita emas balki, maxsus tashkillashtirilgan sharoitda alohida vositalar orqali, majburiy muloqot vositasi sifatida egallaydi. Bunda bolaning ruhiy rivojlanishini kechiktirilmasligini ko‘zlab nutqning qo‘shimcha kompensator vositasi bo‘lgan daktil va imo-ishora shaklidan foydalaniladi. Lekin to‘g‘ri tashkillashtirilgan pedagogik jarayon natijasida eshitishida muammolari bo‘lgan bolalar ma‘lum vaqtdan keyin bunday nutqiy imkoniyatdan qoniqmaydilar, natijada muloqotning yangi, to‘liq nutqiy muloqot shakliga o‘tadilar. Eshitishida muammolari bo‘lgan bolalarning nutqiy muloqoti turli faoliyatlar jarayonida shakllanib boradi. Ular bu davrda nutqning turli formalaridan (og‘zaki, yozma) foydalanadilar, va nutqning ikkala tomoni impressiv (nutqni ko‘rib qabul qilish) va ekspressiv tomoni (gapirish, daktillab aytish, yozuv orqali fikr bildirish) dan foydalanadi.

Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning ruhiy rivojlanishiga psixologik yondashuv maxsus metodlarni, pedagogik va psixologik yondashuvlarni talab qiladi. Bunday bolalarda eshitish qobiliyatining yetishmasligi muloqot vaqtida boshqalarga fikrini bayon qila olmasligi, o‘zligini aglata olmasligi, bilim olish vaqtida esa sog‘lom bolalar kabi tushunchaga ega bo‘lolmasligi va ijtimoiy rivojlanishi kabi jarayonlarida bunday nuqsonlar bolalarga sezilarli darajada ta‘sir ko‘rsatadi. Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni tarbiyalash, ularning kamchiliklarini korreksiyalash va bartaraf etish, ta‘limini to‘laqonli tashkil qilish, pirovard natijada ijtimoiy-foydali shaxs qilib yetishtirishda oilaning roli katta ekani haqiqatdir, hamda har qanday eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolaning ruhiy rivojlanishida ham avvalo oilasi eng muhim o‘rinda turadi. Oila a‘zolarining bu bolalar kabi imo-ishora tilini o‘rganishlari bolalarni jamiyatda o‘zlarini erkin va qulay his qilishlari uchun muhimdir. Ota-onasi bolaga har tomomlana yordam berishi va qo‘llab quvvatlashi kerak. Maxsus malakali pedagoglar va bolani ruhiyatini tushunadigan psixolog bilan aloqa o‘rnatishi lozim. Psixologik yondashuv vaqtida har bir bolaning o‘z ehtiyojlaridan kelib chiqib ular bilan ishlash va muloqot qilish lozim. Bunda psixolog bolaning qiziqishi, uning qobiliyati va ijtimoiy yokida jismoniy holatini o‘rganib chiqishi zarur. Bu yo‘nalishdagi ish ota-ona uchun bolaga pedagogik va psixologik ta‘sir ko‘rsatish vositalarini kengaytirishga, bola bilan o‘zaro munosabatlarning yangi usullaridan foydalanishni mashq qilishga yordam beradi. Bunday hatti-harakatlar, o‘z navbatida, eshitishda nuqsoni bo‘lgan bola tarbiyalanayotgan oilada ichki munosabatlarning uyg‘unlashuviga, oilaning ijtimoiy moslashuviga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa. Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni tashqi muhit bilan bog‘lash ishlarini muntazam olib borish orqali ularni ruhiy rivojlanishlarini tartibga solsa bo‘ladi va ularga eng samarali usullardan biri malakali psixolog va pedagog bilan teng ravishda oila a‘zolari ham ish olib borishlari kerak. Birga olib borilgan ish orqali eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni o‘z qobiliyati va qiziqishlari orqali ularni hayotga muhabbat ila boqtira olish mumkin. Har bir bola avvalo ruhiy rivojlangan bo‘lagina uning jismoniy rivojlanishi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shunday ekan sog‘lom yokida nosog‘lom bola bo‘lsa ham avvalo uning ruhiyati bilan samarali ish olib boorish kerak. Shundagina natija yuqori bo‘ladi. Axir davlatimizning eng ustuvor

masalalaridan biri bu yosh avlodni ilmi, bilimli, iqtidorli, mard-jasur , komil va barkamol qilib tarbiyalab yetuk shaxs qilib tarbiyalashdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mamarajabova Zulfiya Narbaevna ,, MAXSUS PEDAGOGIKA (Surdopedagogika) ‘‘ o’quv qo’llanma. Toshkent,2017
2. D.A.NAZAROVA Z.N.MAMARAJABOVA ,,MAXSUS PEDAGOGIKA (Surdopedagogika) ‘‘ o’quv qo’llanma. Toshkent,2019
3. X.J.KALBAEVA ,, MAKTABGACHA SURDOPEDAGOGIKA’’ o’quv qo’llanma. 2007